

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14434265>

## SEVGI VA HIS-TUYG‘ULARGA BEFARQLIK: ALBERT KAMYUNING “BEGONA” ASARI MISOLIDA.

Fozilova Gulnora

Allanova Muhayyo

TerDu, o‘zbek filologiyasi fakulteti talabalari

*Annotatsiya:* Mazkur maqola Albert Kamyuning Begona asarida bosh qahramon Merso obrazida namoyon bo‘lgan sevgi va his-tuyg‘ularga befarqlik masalasini o‘rganadi. Asarda insoniy munosabatlarga, sevgi va hissiyotlarga nisbatan noan‘anaviy yondashuvni tahlil qilib, Mersoning jamiyatda o‘ziga xos "begona" bo‘lib qolishiga sabab bo‘luvchi omillar yoritiladi.

*Kalit so‘zlar:* sevgi, his-tuyg‘u, absurdizm, erkinlik, inson, befarqlik, falsafiy omillar, emotsional yondashuv, mantiqsizlik.

Albert Kamyuning Begona asari XX asr adabiyotining o‘ziga xos falsafiy durdonalaridan bo‘lib, unda inson va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyatlar, hayotning ma‘nosizligi hamda absurdizmning o‘ziga xos tasviri yoritilgan. Asarning bosh qahramoni Merso sevgiga va his-tuyg‘ularga nisbatan o‘zgacha munosabatda bo‘lib, odatiy insonlarga xos bo‘lgan emotsional yondashuvlardan keskin farq qiladi. U hayot voqealariga befarqlik bilan qaraydi va jamiyat tomonidan kutiladigan hissiy javoblarni namoyon etmaydi. Ushbu maqolada Mersoning hissiyotlarga bo‘lgan munosabati, uning falsafiy asoslari va jamiyat bilan bo‘lgan ziddiyatlari tahlil qilinadi.

Merso, Kamyuning absurdizm falsafasini o‘zida aks ettiruvchi qahramon sifatida, hayotning mantiqsizligini tushungan holda yashaydi. Bu uning sevgiga va hissiyotlarga bo‘lgan qarashlarini shakllantiradi. Mariening Mersoga bo‘lgan chuqur his-

tuyg'ulariga qaramay, Merso bunga sovuqqonlik bilan qaraydi. Marie turmush qurishni taklif qilganida, uning "Menga farqi yo'q" degan javobi Mersoning hayotdagi barcha narsalarga, shu jumladan sevgiga nisbatan befarqligini ochib beradi. Shunga qaramay, Mersoning bunday yondashuvi sevgini rad etish emas. U Mariening mehrini qadrlaydi, lekin munosabatlarda emotsional bog'liqlik yoki chuqur his-tuyg'ularni ko'rmaydi. Bu munosabatlar Mersoning jamiyatdagi odatiy sevgi tushunchalariga mos kelmasligini ko'rsatadi.

Merso onasining o'limini odatiy bir hodisa sifatida qabul qiladi. U onasi bilan uzoq vaqt birga yashamagan va uni parvarish uyiga joylashtirgan. Biroq, bu holatga nisbatan hech qanday aybdorlik yoki afsus hissini namoyish qilmaydi. Onaning dafn marosimida u ko'z yosh to'kmaydi, bu esa jamiyatning "insoniylik" talablariga javob bermaydi. Natijada, sud jarayonida uning onasiga bo'lgan sovuqqonligi asosiy ayblovlardan biriga aylanadi. Jamiyat uchun Mersoning onasi o'limiga bo'lgan befarqligi insoniy qadriyatlardan yuz o'girish sifatida qabul qilinadi.

Mersoning hissiyotlarga bo'lgan befarqligi Kamyuning absurdizm falsafasi bilan chuqur bog'langan. Absurdizm hayotning mantiqsizligini anglash va buni qabul qilishni talab qiladi. Kamyu fikricha, hayotning ma'nosizligini tushungan odam yolg'on umidlar va ijtimoiy kutilmalar bosimidan ozod bo'ladi. Merso o'z hayotida bu falsafani amalga oshiradi. U sevgiga qaram emas, hissiy javoblarni yashirish yoki ijtimoiy talablarni bajarishga intilmaydi. Merso hayotni qanday bo'lsa, shunday qabul qilib, mutlaq erkinlikni boshdan kechiradi. Bu erkinlik esa uning befarqligida namoyon bo'ladi.

Mersoning sevgiga va hissiyotlarga bo'lgan noan'anaviy munosabati uni jamiyat uchun "begona" qilib qo'yadi. Jamiyat his-tuyg'ularni ochiq ifodalashni ijtimoiy qadriyatlarning asosiy qismi deb biladi. Shu sababli, Mersoning befarqligi sudda tanqid uchun asosiy sababga aylanadi. Jinoyat sodir etganidan ko'ra, uning onasiga nisbatan sovuqqonligi ko'proq qoralanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Albert Kamyuning Begona asarida sevgi va his-tuyg'ularga bo'lgan befarqlik chuqur falsafiy ma'noga ega. Merso orqali Kamyu

hayotning absurdligini va uni qabul qilish orqali topiladigan ichki erkinlikni tasvirlaydi. Ushbu asar inson hissiyotlarining mazmuni va ularga nisbatan munosabatni qayta ko'rib chiqishga chorlaydi va o'quvchini hayotga falsafiy yondashuvga undaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alber Kamyu. Begona. Toshkent. "Yozuvchi" nashriyoti. 1995.
2. Albert Kamyu. Ijod va erkinlik. (Fransuz tilidan tarjima) M. Rainbow. 1990.